

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

AKRAMOVA TAXMINA KAMILJONOVNA

**EDGAR ALLAN PO ASARLARIDAGI G‘OYAVIY-BADIIY OBRAZLAR
VA ULARNI TARJIMADA QAYTA YARATISH USULLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation of Doctor of philosophy (PhD)
in philological sciences**

Akramova Taxmina Kamiljonovna

Edgar Allan Poe asarlaridagi g'oyaviy-badiiy obrazlar va ularni tarjimada qayta yaratish usullari 3

Акратова Тахмина Камилжоновна

Идейно-художественные образы произведений Эдгара Аллана По и способы их воссоздания в переводе..... 27

Akramova Takhmina Kamiljonovna

The ideological-literary images in Edgar Allan Poe's works and ways of recreating them in translation 51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

AKRAMOVA TAXMINA KAMILJONOVNA

**EDGAR ALLAN PO ASARLARIDAGI G‘OYAVIY-BADIIY OBRAZLAR
VA ULARNI TARJIMADA QAYTA YARATISH USULLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fil1349 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Ipak yo'li" Turizm va madaniy meros xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdchi.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Nasrullaeva Nafisa Zafarovna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	Bushuy Tatyana Anatolyevna filologiya fanlari doktori, professor Muxitdinova Nazira Batirxanovna filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)
Yetakchi tashkilot:	Buxoro Davlat Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «14» iyul soat 10:00 dagi majlisida bo'ladi. (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks (998966) 210-00-18; e-mail: info@samdchi.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin 6533 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93. Tel.: (99866) 233-78-43, faks: (99866) 210-00-18.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «6» iyul kuni tarqatildi.
(2023-yil «5» iyul dagi № 30 raqamli reestr bayonnomasi)



[Handwritten signature in blue ink]

I.M.Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

G'.Q.Mirsanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

[Handwritten signature in blue ink]

Sh.S.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Chet el adabiyotini o'rganish yosh avlodni tarbiyalash va shakllantirishda alohida rol o'ynaydi, bo'lajak o'qituvchilarning saviyasini sezilarli darajada kengaytiradi, tilni ijodiy o'zlashtirish, boshqa mamlakat madaniyati, an'analari va ma'naviy qadriyatlari to'g'risidagi bilimlarni kengaytirish imkoniyatini beradi. Zamonaviy jahon adabiyotshunosligi yangi badiiy obrazlarni, ularning haqiqatda mavjud bo'lgan odamlar obrazlariga mos kelishi va kelmasligini o'rganishga qaratilgan. Kinoyaviy qayta anglash asosida qurilgan va inson hayotining ma'lum bir bosqichi, uning fikrlari va hissiyotlari ramzi bo'lgan san'at asarlarining yangi, g'ayrioddiy hamda fantastik obrazlari tadqiqotchilar va adabiy tanqidchilar e'tiborini tortadi. Asar muallifi tomonidan yaratilgan obrazlarni tarjima matnida qayta yaratish muammosi katta ahamiyatga ega. Bu yerda tarjima matnida badiiy obrazlarni tasvirlash maqsadida fonetik, leksik, grammatik, sintaktik va ekspressiv-uslubiy vositalarni tanlash muhim rol o'ynaydi.

Jahon ilmiy amaliyoti ham haqiqiy, ham fantastik nostereotip badiiy obrazlarning g'oyaviy-falsafiy mazmuni, shuningdek, lingvistik vositalarni to'g'ri tanlash orqali tarjima matnida bunday obrazlarni qayta yaratish metodikasini ishlab chiqish kabi muhim muammolarning yetarli darajada o'rganilmaganligini aniqladi. Badiiy asar muallifi tomonidan yaratilgan har bir yangi obraz muhim pragmatik ma'lumotlarga ega va zamonaviy inson shaxsi falsafasini aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, yosh avlodga chet tillarini o'rgatish, ulardan erkin foydalanadigan mutaxassislarni tayyorlash maqsadida jahon sahnasida barchamizdan yangicha fikrlashni, yanada unum bilan ishlashni talab qiladigan raqobat kuchayib borayotgan hozirgi jadal rivojlanayotgan davrda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ilg'or o'qitish usullarini joriy etish orqali o'qituvchilar oldiga yoshlarni barkamol rivojlantirish va ta'lim jarayoniga yo'naltirish vazifasi qo'yilgan. Har qanday yo'nalish bo'yicha zamonaviy pedagog jahon tizimiga integratsiyalashishi uchun chet tillarni bilishi zarur¹. Ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlar tufayli ta'limning barcha darajalarida chet tilini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda, filolog-pedagoglarni tayyorlash kursida chet tillari va xorijiy adabiyotlarni yanada kengroq o'rganish jarayonining dolzarbligi sezilarli darajada oshib bormoqda. Bunday tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasida ta'lim va fan sohasida alohida ahamiyat kasb etmoqda, chunki xorijiy badiiy adabiyotlarni o'qish o'quvchining saviyasini kengaytiradi va uni etnospetsifik xususiyatlarga ega bo'lgan yangi obrazlar va qahramonlar bilan tanishtiradi. Tarjima matnida yangi obrazlarni o'girish va qayta yaratish usullarini izlash badiiy jahon adabiyoti xazinasiga qo'shilish, yangi adabiyotshunoslikka oid bilimlarga ega bo'lish va chet el madaniyati, hayoti va turmush tarzi, chet tili tashuvchilarining milliy ruhi va hayotiy tamoyillari bilan tanishish imkonini beradi. Bu nuqtai nazardan olib borilgan tadqiqot ishlari mamlakatimizda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.

adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikni yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratilishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-sonli qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy tadqiqotlar orasida E.A.Po ijodi bilan H.Allen, Jeffrey Meyers, D.H.Anrue, G.Woodberry, W.B.Caims, F.Stovall, L.Cotrau, L.Carroll, T.O.Mabbott, D.M.Reyn, K.Silverman²lar shug‘ullangan. H.Allen E.A.Po hayoti va ijodi haqida monografiya yozgan. Po hayoti va ijodi Jeffri Meyersning asarlarida yoritilgan. Amerikalik shoir va nasrnavisning hayoti hamda ijodiy yo‘li D.H.Unrue va Woodberry George, Sh.Bodler, Dj.Grossman, asarlarida ham atroflicha o‘rganilgan va tasvirlangan. U.B.Keyms “Al-A’rof” poetikasini tadqiq qilgan. Bu doston F.Stovallning, tadqiqot obyekti bo‘lgan. L.Kotro Po she‘riyatining o‘ziga xos xususiyatini

² Allen H. Israfel: *The Life and Times of Edgar Allan Poe*. – N.Y.: Doran Company, 1926. – 389 p.; Jeffrey Meyers. *Edgar Allan Poe: His Life and Legacy*. – New York: Cooper Square Press, 2000. – 376 p.; Unrue D.H. *Edgar Allan Poe: The Romantic as Classicist*. // *International Journal of the Classical Tradition*, 1995. – № 4. Vol. 1. – P. 112-119.; Woodberry George E. *The Life of Edgar Allan Poe*. 2 vols. – Boston: Read books, 1909. – 432 p.; Stovall F. *An Interpretation of Poe's "Al Aaraaf"*. *Studies in English*, 1929. № 9. – P. 106-133.; Caims W. B. *Some Notes on Poe's Al Aaraaf*. // *Modern Philology*, May 1915. – P. 35-44.; Cotrau L. *Edgar Allan Poe: poetry and indeterminacy* // *Studia Univ. Babeş-Bolyai. Philologia*, 1987. – A. 32, N 1. – P. 3-10.; Laverty Carroll. *Poe in 1847* // *American Literature*, May 1948. – P. 163-168.; Mabbott T.O. *Edgar Allan Poe: Complete Poems*. – Chicago: University of Illinois, 2000. – 321 p.; Rein D.M. *Edgar Allan Poe. The Inner Pattern*. – New York 1960. – 186 p.; Silverman K. *Edgar A. Poe: Mournful and Never-ending Rememberance*. – New York: Harper Perennial, 1991. – 155 p.

o'rganan. Shoirning asarlari Laverti Keroll, T.O.Mabbot, D.M.Reyn, K.Silvermen va boshqalarning sharofati bilan to'planib nashr etilgan.

Edgar Allan Poning ijodiyoti va asarlari, shuningdek, uning jahon adabiyotiga adabiy ta'siri bir qator rus olimlari: A.M.Zverev, Y.V.Kovalev, va boshqalar³ tomonidan o'rganilgan. E.A.Po ijodining o'ziga xos xususiyatlari E.Y.Zabayeva, T.V.Kolcheva, A.G.Konovalenko, X.Kortasar, M.V.Mixina, va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan⁴. E.Y.Zabaeva Po va rus simbolistlari, asarlaridagi resepsiya muammolarini tadqiq qilgan. E.Poning "The Bells" ("Qo'ng'iroqlar") va K.Balmont, tarjimasidagi "Qo'ng'iroqchalar va qo'ng'iroqlar" she'ri tahlili asosida T.V.Kolcheva K.Balmont idrokidagi Edgar Po she'riy ritmining tasavvufini tahlil qilgan. A.G.Konovalenkoning nomzodlik dissertatsiyasi E.Poning V.Bryusov, tarjimasidagi asarlariga bag'ishlangan. H.Kortasar Edgar Po haqida shoir, yozuvchi va tanqidchi sifatida yozgan. M.V.Mixina tadqiqot ishini E.Poning Fransiyada simbolistik she'riyatning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlagan.

O'z ilmiy izlanishlarini adabiy-badiiy tarjima masalalariga bag'ishlagan mahalliy olimlar qatoriga I. K. Mirzayev, Sh. S.Safarov, I. M. Tuxtasinov, M. N. Xolbekov, K. Musayev, G. Salomov, D. U. Xoshimova, R. X. Shirinova, J.Sharipov, va boshqalar kiradi. J. Sharipov o'z kitobida nafaqat badiiy asarlarni, balki falsafiy, tarixiy, geografik, tibbiy, diniy kitoblarni, lug'atlarni, shuningdek diplomatik hujjatlar va publitsistik asarlarni tarjima qilish tarixini yoritib bergan. Monografiyada adabiyot, uslubiyat, leksikologiya, dialektologiya tarixi bo'yicha materiallar keltirilgan. Albatta, badiiy tarjima muammolariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlar mavjud, lekin shunga qaramay bir qator yetarlicha o'rganilmagan muammolar saqlanib qolmoqda, ya'ni: asarlarda g'oyaviy-badiiy obrazlardan foydalanish masalalari va ularni tarjimada gavdalantirish usullari, tarjimada qayta yaratish uchun ifodali vositalarni tanlash va Edgar Allan Po asarlarini boshqa tillarga adekvat tarjima qilish uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy o'quv yurtining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining "Zamonaviy adabiyotshunoslik va tarjima muammolari" istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

³Бодлер Ш., Эдгар По. Перевод Л. Когана. – Одесса: Изд, 1910. – С. 120-167.; Гроссман Дж.Д. Эдгар Аллан По в России: легенда и лит. влияние / пер. с англ. М.А. Шерешевской. – СПб.: Академический проект, 1998. – 208 с.; Зверев А.М. Эдгар Аллан По / История литературы США. Т.3. – Москва: Наследие, 2000. – С. 172-221.; Ковалев Ю.В. Эдгар По // История всемирной литературы. – Москва: Изд.-во МГУ, 1989. – Т. 6. – С. 571-577.

⁴ Забаева Е.Ю. Эдгар Аллан По и «старшие» русские символисты: проблема рецепции: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва: МГПУ, 2011. – 29 с.; Колчева Т.В. Мистицизм поэтического ритма Эдгара По в восприятии К. Бальмонта: (На основе анализа стихотворения Э. По «The Bells» и перевода К. Бальмонта «Колокольчики и колокола») // Русский символизм и мировая культура. – Москва, 2004. – Вып. 2. – С. 68-78.; Коноваленко А.Г. Баллады Э. По в переводе В. Брюсова: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Томск: Том. гос. ун-т, 2007. – 22 с.; Кортасар Х. Эдгар По – поэт, писатель, критик / пер. Тевлиной Ж.А. // Лат. Америка / America Latina. – Москва, 1999. - № 2/3. – С. 102-108.; Михина М.В. Влияние Э.По на формирование и развитие символистской поэзии во Франции: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1999. – 16 с.

Tadqiqotning maqsadi E.A.Po asarlarining g‘oyaviy-badiiy obrazlarini tahlil qilish va ularni tarjima matnida qayta yaratish yo‘llarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

E.A.Po uslubining badiiy xususiyatlari va badiiy obrazlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

E.A.Po ijodiy faoliyati shakllanishining omillarini tavsiflash va Sharq mavzusining uning she‘riy asarlariga ta‘sirini o‘rganish;

E.A.Poning “Tamerlane” (“Buyuk Temur”) dostonida badiiy obrazlarni yaratishda qo‘llanilgan lingvoshe‘riy vositalarni tahlil qilish;

E.A.Po asarlari tarjimalarining asl nusxalari va tarjimalarini solishtirish hamda ular orasidagi nomuvofiqliklarni aniqlash;

E.A.Po asarlarining haqiqiy va fantastik obrazlarini yaratish maqsadida adekvat (mos) tarjima usullarini aniqlash va uning asarlarini boshqa tillarga tarjima qilish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti bo‘lib E.A.Po asarlarining asl nusxalari va tarjimalari xizmat qilgan.

Tadqiqot predmetini E.A.Po asarlarining asl nusxalari va tarjimalarida g‘oyaviy va badiiy obrazlarni yaratishning fonetik, leksik, grammatik, sintaktik va ekspressiv-uslubiy vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot davomida transformasiya usuli: leksik, morfologik, semantik, sintaktik, grammatik, stilistik, diskurs-tahlil; lingvistik-she‘riy tahlil usuli: emosional tonallik tahlili, ritmika tahlili, she‘riy vazn va qofiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlili; deskriptiv usul, taqqoslama-qiyosiy tahlil, komponentlar tahlili, falsafiy-baholovchi tahlil va kontekstual tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

E.A.Po badiiy uslubining strukturaviy-kompozitsion va ommabop ekspressiv-stilistik vositalari (epitetlar, metaforalar va qiyoslashlar) aniqlangan, shuningdek, badiiy obrazlarining hayoti, borlig‘i, o‘ziga xos xususiyatlari, ichki dunyosi va ruhiy holatining g‘oyaviy-falsafiy muammolari ochib berilgan;

Yaqin Sharqning E.A.Po she‘riy asarlarida ta‘siri va Sharq mavzusining uning uning asarlari va obrazlarida aks etishi o‘rganildi, shuningdek, E.A. Po asarlarida badiiy obrazlarni yaratishda qo‘llanilgan fonetik, leksik, grammatik, sintaktik va stilistik vositalar “Tamerlane” (“Buyuk Temur”) dostoni misolida yoritilgan;

Qiyosiy- chog‘ishtirma tahlil asosida fonetik, leksik, stilistik va sintaktik nomuvofiqliklar shuningdek E.A.Po asarlarining asl nusxasi va mashhur tarjimonlar tomonidan qilingan tarjimalari o‘rtasidagi vazn va qofiyalashdagi nomuvofiqliklar aniqlangan;

E.A.Po asarlarining real va fantastik obrazlarini yaratish uchun tarjimaning adekvat usullari belgilangan, shuningdek uning she‘rlarining vazni, ohangdorligi, takrorlanishlari va murakkab tuzilmalariga erishish maqsadida uning asarlarini ketma-ketlik, she‘rni misralarga bo‘lish va misralardagi satrlar soniga rioya qilgan holda boshqa tillarga tarjima qilish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

Adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik nazariyasi hamda amaliyoti adabiy asarning g‘oyaviy-badiiy obrazlarini qayta yaratish nuqtai nazaridan boyitilgan; she‘riy matnni tahlil qilish va tarjima qilish metodikasi ishlab chiqilgan; E.A.Po asarlarini boshqa tillarga tarjima qilish bo‘yicha taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilishi, chiqarilgan xulosalarning qat‘iyligi, qo‘llanilgan yondashuv, usul va nazariy ma‘lumotlarning ishonchli manbalardan olingani, tahlilga tortilgan lisoniy materiallarning asosiligi, antropotsentrik paradigmadagi qo‘llanilgan usullardan foydalanilganlik, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati adabiyot va tarjimashunoslikni har tomonlama o‘rganish, badiiy matnni talqin qilish va tahlil qilishni yanada rivojlantirish uchun istiqbollarni ochib beruvchi tahlil va xulosalar asosida olingan natijalarning foydalanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiya materiallari o‘quv jarayonida “Stilistika”, “O‘rganilayotgan til mamlakatlari adabiyoti”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Matn talqini” fanlari bo‘yicha ma‘ruzalar va seminarlarni o‘tkazishda, bakalavriat bo‘limida ham maxsus kurslarni o‘qitishda, shuningdek, tadqiqot aspekti doirasida dissertatsion ishlar va ilmiy maqolalarni yozishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. E.A. Po asarlarida badiiy obrazlarni yaratish va ularni tarjima matnida saqlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqot asosida:

badiiy obrazlar tarjima matnida berilish tahlil xulosalari Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2020-2021- yillarga mo‘ljallangan 561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+ CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta‘lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022 yil 6 sentyabrdagi 2435/30.02.01-son ma‘lumotnomasi). Ilmiy natijalar o‘qituvchilarning badiiy asarlar syujetini tushunish va idrok etish, yangi badiiy usullarni talqin qilish, asliyat va tarjima matn bilan ishlash va ularni qiyoslash, qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik sohalaridagi bilimni oshirish, tarjimada eng adekvat usullarni qo‘llash borasidagi bilimni oshirish va turli stilistik vositalarni chuqur tadqiq qilish imkonini bergan;

badiiy matnni adekvat tarjima qilish usullarining tadqiq xulosalari Yevropa Ittifoqining TEMPUS dasturi 2020-2021- yillarga mo‘ljallangan Tempus Project 544161- TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL “Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022 yil 6 sentyabrdagi 2433/30.02.01-son ma‘lumotnomasi). Dissertatsiyadan olingan materiallar talabalarning badiiy asarlarni o‘qish qobiliyatini oshirish, badiiy usullarni o‘rganish va tarjima ko‘nikmalarini rivojlanishga yo‘naltirilgan til

aspektlari amaliyoti hamda adabiyotshunoslik fanini innovatsion texnologiyalar orqali takomillashtirish uchun xizmat qilgan;

g'oyaviy-badiiy obrazlarni matnda yaratish lisoniy vositalarning tahlil natijalari I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" nomli innovatsion tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022 yil 6 sentyabrdagi 2436/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot ilmiy natijalarining qo'llanilishi badiiy obrazlarni talqin qilish, badiiy obrazlarni tarjima matnida turli stilistik vositalar yordamida qayta yaratish usullarini chuqur o'rganish, badiiy asar muallifining falsafiy g'oyasini tushunish va uni tarjimada kitobxonga yetkazish usullarini tadqiq qilish, chet tilini o'rgatishda badiiy matnni muvofiqlashtirish imkonini bergan;

dissertatsiyaning ilmiy xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati "STV" telekanalining yoshlarni xorijiy tillarni o'rganishga va jahon adabiyoti durdonalarini taqdim etgan adiblar hayoti va ijodi borasida ma'lumotlar yetkazishga bag'ishlangan madaniy-ma'rifiy dasturlarni tayyorlash ssenariysida foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022 yil 30 maydagi 30/05/01-sonli guvohnomasi). Ushbu tadqiqot natijalari ommaviy tarzda badiiy obrazlarni talqin qilish, badiiy obrazlarni tarjima matnida turli stilistik vositalar yordamida qayta yaratish usullarini chuqur o'rganish, badiiy asar muallifining falsafiy g'oyasini tushunishga zamin yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari ilmiy ma'ruzalar ko'rinishida 8 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 138 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqot material tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, aprobatsiya, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Edgar Allan Po muallif uslubini o'rganishga adabiy yondashuv" nomli birinchi bobida Edgar Allan Poning hayotiy qiyinchiliklari va

ijodiy faoliyatining shakllanish xususiyatlari tasvirlangan, adabiyotda badiiy obraz yaratishning lingvistik vositalari o'rganiladi hamda Edgar Allan Po muallif uslubining ekspressiv-uslubiy va badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi.

Amerika romantizmi vakili, taniqli nasrnavis, novellachi, shoir, tanqidchi va muharrir Edgar Allan Po tadqiqotimizning obyektidir. Po faoliyati va asarlari Amerika romantizmi va realizmining rivojlanishi uchun sezilarli rol o'ynagan. U haqli ravishda adabiyot janri sifatida Amerika novellasining asoschilari va ishlab chiquvchilaridan biri hisoblanadi⁵.

Dahshat va detektiv janrlaridan foydalangan holda yozgan, Amerika adabiyotining ulug' siymosi Edgar Allan Poning tarjimai holi bir-biriga zid, qarama-qarshi hollar: merosdan mahrum bo'lgan, yorqin, ammo mehnatidan foydalaniladigan muallif va muharrir, qat'iy ravishda evidalikdan tiyiqsiz aysh-ishratga o'tgan, umrining oxirida dinga qaytishga intilgan kishining portretidir⁶.

"Bostonlik" taxallusi bilan yozilgan "Tamerlane" (Buyuk Temur) va boshqa she'rlar" ilk she'riy to'plami 1827 yil iyun oyida nashr etilgan⁷. To'plamga "Tamerlane" (Buyuk Temur) dostoni hamda "...ga", "Orzular", "O'lim ruhlari", "Kechki yulduz", "Imitatsiya", "Stanslar", "Tush", "Eng baxtli kun", "Ko'l" she'rlari kiritilgan. Nyu-York davrida Poning quyidagi asarlari nashr etilgan: "Ligeyya", "Qo'ng'iroq minorasidagi Iblis", Uilyam Uilsonning "Asherlar uyining qulashi", shuningdek, "Artur Gordon Pim" ustida ish davom etgan. 1841 yil aprelda "Graham's Magazine" keyinchalik detektiv janrning kashshofi sifatida dunyoga mashhurlik keltirgan – "Morg ko'chasidagi qotillik" hikoyasini nashr etgan. Filadelfiyadagi ijodining so'nggi yillarida muallifning ijodida eng sara asarlardan biri bo'lgan: "Qora mushuk" (1843 yil, avgust), "Ko'zoynak" (1844 yil, mart), "Tik tog'lar qissasi" (1844 yil, aprel), "Bevaqt dafn" (1844 yil, iyul), "Mesmerik dilroz" (1844 yil, avgust), "Tushunarsizlik farishtasi" (1844 yil, oktyabr) va boshqa hikoyalarning nashr etilganligi bilan qayd etilgan.

Amerika romantizmining badiiy kontseptsiyasini maksimal darajada sezib, olimlar E.A.Poning she'riyati va uning "dahshatlar romanlari" hamda psixologik novellalari ("Ligeya", "Morella", "Asherlar uyining qulashi")ni qayd etdilar.

Edgar Po she'riy merosining asosiy o'zagini uning kichik hikoyalari tashkil qiladi. Aynan kichik nasrda u o'zining ajoyib mahoratini bildi va badiiy mukammallikning eng yuqori cho'qqisiga erishdi⁸. E.A. Poning Amerika va jahon romantizmining shakllanishiga qo'shgan hissasi uning bir qator janr yo'nalishlari – detektiv, ilmiy fantastika va psixologik syujetni yaratish amaliyoti bilan bog'liq⁹.

Badiiy obrazlarni tasvirlash uchun qo'llaniladigan lingvistik usullar qahramonlar xarakterining xususiyatlarini ochib berishga va ularning his-tuyg'ularini yanada jonli ifoda etishga imkon beradi. E.B. Borisova badiiy obrazni "muallifning o'zi tomonidan lingvistik mo'llik yordamida yaratilgan mustaqil

⁵ Ковалев Ю.В. Эдгар По // История всемирной литературы. – Москва: Изд.-во МГУ, 1989. – Т. 6. – С. 572.

⁶ Jeffrey Meyers. Edgar Allan Poe: His Life and Legacy. – New York: Cooper Square Press, 2000. – P. 79.

⁷ Тейлор Э. Ключи от тайн. Переводчик: Власова Н. – Москва: Амфора, 2006. – С. 78.

⁸ Williams M. A world of words: language and displacement in the fiction of Edgar Allan Poe. – Durham, 1988. – P. 24.

⁹ Andrew Taylor. Historical novel, the American boy. – New York: Harper Collins, 2003. – P. 217.

hayot va ma'noga ega bo'lgan parcha" sifatida talqin etadi¹⁰. A.E. Efimov badiiy obrazni adabiy asar shaxsining obrazi sifatida tasvirlaydi¹¹. Obrazlar o'zgarmas mazmunga ega, shunday bo'lsa ham ular oson aks ettiriladi – ular ularni o'rab turuvchi voqelikning "namunalari"dir. V.E.Xalizyov madaniy, estetik va kommunikativ funksiyalarni badiiy obrazning eng muhim xususiyatlari deb hisoblaydi. Obrazli funktsiya qahramonning yaxlit ijtimoiy-psixologik portreti bo'lgan badiiy obrazning ramziy ma'nosini shakllantirishda ifodalanadi. Estetik ifodalilik funktsiyasi obraz mustaqil xarakterga ega bo'lganda amalga oshiriladi, bu to'liq matnni tushunib yetish uchun muhim hisoblanadi. Kommunikativ funktsiya obraz badiiy obraz shakli, badiiy ijod tili bo'lib xizmat qilganda amalga oshiriladi¹².

Badiiy obraz osonroq eslab qolinishi uchun u ekspressiv va tushunarli bo'lib chiqishi kerak. M.I. Kotovichning fikriga ko'ra, turli uslubiy vositalar bir-biri bilan o'zaro ta'sir qilishi orqali ekspressivlikni oshirishi mumkin¹³. Bu bilan, uslubiy vositalar yordamida parallel ravishda tasvirlangan hodisalar (harakatlar)ning o'xshashligi/farqini alohida ta'kidlash mumkin. Adabiy asardagi badiiy obrazning o'ziga xos va juda muhim elementi bo'lib qahramonning nutqiy xususiyati xizmat qiladi¹⁴.

Kinoyaviy hikoyaning taqdim etilishini Allan Poning "Devordagi maxluq" asarida ko'rsa bo'ladi:

"I had walled the monster up within the tomb!"

Agar diqqatimizni Edgar Poning "Quzg'un" asariga qaratadigan bo'lsak, qushning unga qarashi tavsifi berilayotgan mubolag'adan foydalanishga duch kelishimiz mumkin:

"To the fowl whose fiery eyes now burned into my bosom's core... "

Avvalo, quzg'unlarning ko'zlari qora (olovli emas) va ular, albatta, shu qadar qattiq boqmoqdaki, bamisoli ularning ko'zlari yonayotgandek bo'lib tuyuladi. Allan "Quzg'un"da qo'llanilgan takrorning bir turi sifatida alliteratsiya adabiy usullaridan mohirlik va ustalik bilan foydalangan. U shoir bir nechta so'zlarning boshida bir xil undosh tovushni qaytargan paytda paydo bo'ladi:

"Weak and weary", "soul" and "stronger".

Shuningdek, Edgar Allan Po o'zining "Qo'ng'iroqlar" she'rida mazmun kayfiyatini yuzaga keltirish uchun tovushga taqlid qiluvchi so'zlar, so'ngra o'lim yaqinlashgani sayin tobora tahlikali bo'lib boradigan qo'rquvdan ustalik bilan foydalanadi:

*«Hear the tolling of the bells -
Iron bells!*

¹⁰ Борисова Е.Б. О содержании понятий «художественный образ» и «образность» в литературоведении и лингвистике // Вестник Челябинского государственного университета. Филология. Искусствоведение, 2009 - № 35 (173) – С. 25.

¹¹ Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – Москва: Изд-во МГУ, 1959. – С. 93.

¹² Хализев В.Е. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1999. – С. 207.

¹³ Котович М.И. Языковые средства создания персонажа в художественном произведении // Идеи. Поиски. Решения: сборник статей и тезисов IX Междунар. науч. практ. конф. – Москва, 2015. – С. 64.

¹⁴ Опарина Е.О. Языковой образ в коммуникации: Сб. науч. Трудов / РАН. ИНИОН. Центр гуманитар. науч.-информ. исслед. Отд. языкознания. – Москва, 2017. – С. 41.

*What a world of solemn thought their monody compels!
In the silence of the night,
How we shiver with affright
At the melancholy menace of their tone!*

Bunday tovushlar birligi matnga mazmun boyligi yoki aksincha, mayin sado uyg'unligini bag'ishlaydi¹⁵. Shu tariqa, barcha mumkin bo'lgan lingvistik vositalardan foydalangan holda, qahramonlar obrazlarini alohida shakllantirgan holda muallif o'z o'quvchisiga ta'sir ko'rsatishga muvaffaq bo'ladi. Bunda Edgar Allan Po she'riy kontseptsiyasining umumiy tamoyili qandaydir-bir asarning hissiy-psixologik ta'siriga tayanadi. U bunday natijani "totallik effekti" ("umumiylik effekti") deb atadi, uning eng muhim xususiyati yaxlitlikdir.

Shoirning diqqat-e'tibori faqat sevgi va o'lim bilan bog'liq his-tuyg'ulardan hissiyotlar hosilasi sifatida paydo bo'ladigan munosabatlarga qaratilgan. She'riyatning ikki ma'noliligi hamda ulug'vorligi uning kinoyaviyligiga sabab bo'ldi. Poning kinoyaviyligi ikkita o'ziga xos xususiyatga ega: birinchidan, uning kinoyalari shartli belgilar atrofida guruhlanadi; ikkinchidan, kinoyalarning o'zi shartli belgilarga nisbatan jozibadorlikka ega va ko'p hollarda ushbu belgilar funktsiyasini bajaradi.

Po bir necha marotaba, she'riyat – bu go'zallik deb ta'kidlagan. Go'zallik haqida gapirar ekan, u tartiblilik, mutanosiblik va uyg'unlikni nazarda tutgan. Uning she'rlari o'zaro nisbat, mansublik haqida gapiradi, o'ziga xos vazn, qofiya, hajm va yo'nalishga ega. Effekt – Edgar Po asarlari uslubiyatining asosidir. Unga mavzu, syujetdan tortib, she'rning hajmi, misrasi, vazniy tuzilishi, kinoyalarning qo'llanilishi kabi taomillarga qadar asarlarning barcha komponentlari bo'ysunadi. Mutlaq usta uchun hamma narsa ishlashi kerak, usta esa – bu "effekt", ya'ni she'rning o'quvchiga maqsadli ma'naviy ta'siridir¹⁶.

Uning she'rlarida kolorit, rang, tovush, hidning ramziy ma'nolari mavjud. Shoirning qalami tufayli quyosh va oy, yulduzlar va dengiz, ko'llar, o'rmonlar, kun, tun, fasl va hokazolar allaqanday bir ramziy narsa sifatida qabul qilinadi. Inson madaniyati, antik afsonalar va folklor e'tiqodlari, tarixiy yodgorliklar va me'moriy haykallar, Muqaddas Bitik va Qur'on, xalq naqllari va jahon she'riyati, ertak qahramonlari va mardonavor tarixiy qahramonlar – bularning barchasi uning syujetlarining qimmatli manbaidir.

Po hikoyalarining asosiy tashkil etuvchisi ko'pincha "dahshatli" yoki "jirkanch" deb nomlanadigan psixologik tavsif hisoblanadi. Ularning asosiy mavzusi – insonparvarlik g'oyalariga muvofiq tarbiyalangan inson ongining zamonaviy Amerika meshchanlar sivilizatsiyasi taraqqiyoti sabab bo'lgan yangi g'ayriinsoniy odatlar bilan mojarosining qayg'uli voqealaridan iborat.

Edgar Poning detektiv xarakterdagi syujetlari uning dahshatlar haqidagi hikoyalaridan tubdan farq qiladi. Uning detektiv janrdagi asarlarida bosh qahramon amal qiladigan uzluksiz mantiq liniyasi kuzatiladi. Shu tariqa, E.Poning novellalari

¹⁵ Бондарь С.В. Звуковая стилистика: аспекты фонетического значения: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва: Рос. акад. наук, Ин-т языкознания, 2001. – С. 21.

¹⁶ По Э. Философия творчества // Эстетика американского романтизма. – Москва, 2002. – С. 98.

bir nechta kenja turdagi janrlarga ega: detektiv, ilmiy fantastika va psixologik dahshatlar hikoyalari.

Dissertatsiyaning **“E.A.Poning muammolar doirasi va badiiy obrazlari”** nomli ikkinchi bobida Edgar Allan Po asarlari syujetlarining asosiy muammolari tasvirlanadi, badiiy obrazlarining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi, E.A.Poning she’riy asarlariga Sharqning ta’siri tadqiq etiladi va asarlari tarjimalarining badiiy xususiyatlari yoritiladi.

XIX asrning birinchi yarmida Amerikada juda keng tarqalgan janr shakli novellalar yoki qisqa hikoyalar bo‘lgan. Ushbu janr ustasi Edgar Allan Po hanuzgacha tengi yo‘q bo‘lib qolmoqda. Psixologik hikoya janrining paydo bo‘lishi va keyinchalik undan “dahshatli” janrining paydo bo‘lishi amalda Amerika romantik adabiyotining paydo bo‘lishi davriga to‘g‘ri keladi.

Edgar Poning xizmatlari shundaki, u roman janriga tugallanganlik bag‘ishladi, aniq va tushunarli nazariyani yaratdi va bugungi kunda biz Amerika romantik romani, qissa, novellani aniqlashda eng muhim deb biladigan xususiyatlarni belgilab berdi. Birinchi darajali muhim e’tibor o‘quvchida kuchli hissiy taassurot hosil qilish usuliga qaratildi. “Asarni to‘g‘ri tuzish va maksimal effektini yaratishga a’lo darajada yordam beradigan badiiy usullarni tanlash asosiy tamoyil bo‘ldi”¹⁷.

E.Po yorqin ifodalangan badiiy ratsionallikni birlashtirgan, uning eng yaxshi hikoyalari "umumiy effekt" nazariyasiga to‘liq mos ravishda yozilgan edi¹⁸. E.Po ushbu effekt hikoyaning kulminatsion nuqtasiga to‘g‘ri kelishi kerak, deb hisoblagan. Natijada, yozuvchi asarlarining kutilmagan dramatik yechimlari o‘quvchilar ongiga o‘chmas hissiy ta’sir qoldiradi. Shuning uchun, E.A Po mazmunan kichik hikoyalar – bir o‘tirishda o‘qilishi mumkin bo‘lgan qisqa qissalarni afzal ko‘rgan, roman yoki dostonni idrok etish esa, uzoq vaqt davomida yorqin hissiyotlarni his qilishning iloji yo‘qligini hisobga olib, doimo uzilib, parchalarga bo‘linadi.

Uning asarlarida tafsilot maxsus ma’noviy yuklamaga ega bo‘lgan. A.N. Nikolyukin E.A.Po hikoyalaridagi tafsilot hikoyada qatnashuvchi shaxslar obrazining eng grotesk xususiyatini ta’kidlaydigan, ko‘pincha butun obrazni bitta gipertrofiyalangan tafsilotga aylantiruvchi o‘ziga xos badiiy funktsiyaga ega, – deb yozgan. Bu bilan, u qahramon yoki uning psixologik qiyofasini ma’lum ijtimoiy-tarixiy xususiyatlarga ega prizmaga aylantiradi¹⁹. Darhaqiqat, Poning asarlarida har bir tafsilot nihoyatda muhim ahamiyatga ega va obraz ifodaliligining vositasi hisoblanadi (masalan, Asher uyi oldidagi sezilarli yoriq uyning to‘liq vayron bo‘lishi bilan tugaydigan o‘sha dastlabki parchalanish jarayonini aks ettiradi).

Ko‘pgina asarlarda muallif syujetning avj nuqtasini yakunlaydi, buni erishilgan birlik buzilmasligi, aksincha, o‘quvchi xotirasida eng yuqori kulminatsion ohangda muhrlanishi kerakligi bilan izohlaydi. Shu bilan bir vaqtda, agar voqeaning boshlanishi va rivojlanishi tafsilotlarga to‘la bo‘lsa, yechim maksimal lo‘ndalik bilan yoziladi. E.A.Poning hikoyalaridagi so‘nggi sahnalar

¹⁷ Танасейчук А.Б. Жизнь замечательных людей. – Москва: Молодая гвардия, 2015. – С. 438.

¹⁸ Ковалев Ю.В. Эдгар По // История всемирной литературы. – Москва: Изд.-во МГУ, 1989. – Т. 6. – С. 572.

¹⁹ Николоюкин А.Н. Американский романтизм и современность. – Москва: Наука, 1968. – С. 349.

odatda keskinlikni kuchaytirib, tezashtirilgan sur'atda rivojlantiradi va finalda taassurotni kuchaytiradigan hissiy portlash yuz beradi.

E.A.Poning hikoyalari ichki qo'rquvning turli xil tashqi, ko'rinarli va mistik ko'rinishlari bilan to'ldirilgan. Inson qo'rquvining paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayonining nozik psixologik tahlili – yozuvchi fantastik romanlarining xususiyatlaridan biri bo'lib, uning Amerika adabiyotining ushbu janriga qo'shgan hissasini belgilaydi. E.A.Poning har qanday hikoyalarida qo'rquv hissi syujetning yagona ustun xususiyati emas, ko'proq uning sababi muhimroq²⁰.

Edgar Allan Poning qisqa hikoyalari aniq tartiblilik, konstruktivlik va kompozitsion-mazmuniy yaxlitlik bilan ajralib turadi. Yozuvchining tajribalari uni asarning mutlaqo o'ziga xos kompozitsion tuzilishini yaratishga olib keldi. Poning aksariyat asarlari tuzilishini quyidagicha ko'rsatish mumkin: syujet – voqealar rivoji – avj nuqtasi – yechim (voqea vaqti). Ushbu kontseptsiyani Edgar Poning “Asher uyining qulashi” nomli eng muhim romanlaridan biri misolida aniq ko'rish mumkin. Syujet – bu hikoyachining Roderik Asherning yer-mulkiga kelishi va uning boshqa aholisi bilan tanishishi. Asosiy qismi mojaroning rivojlanishi, Asher ongining yanada xiralashishi va ruhiy holatining yomonlashishi, o'sib borayotgan ruhiy tashvish, chorasizlik va ilojsizlikning kuchayishi fonida singlisining dafn etilishining sirli va g'alati hikoyasini qamrab oladi. Va nihoyat, avj nuqtasi va eng katta hissiy chaqnash asarning muhim qismida, voqealar shiddat bilan va tez bir-birini almashtirganda boshlanadi. Fojia Roderik va Medileyn xonim vafotidan keyin Asherlar uyining o'zi uning yashovchilari taqdirini takrorlab vayron bo'lganida o'zining eng yuqori cho'qqisiga yetadi. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan asarda novellaning uchta asosiy qismi birligida aniq kompozitsion tuzilishga egaligi kuzatiladi.

E.Po hikoyalarining asl yechimlari har doim g'ayrioddiy va ko'pincha syujetning keyingi rivojlanishiga zid keladi. Haqqoniy xotima ko'pincha to'liq bema'nilikka yaqin bo'lgan keskinlikni eng yuqori nuqtaga yetkazib, har doim dramatik manzarani kuchaytiradi. Dramatik holatlar va bemulohazalik yozuvchining aksariyat hikoyalari asosiy mazmunining asosiy ajratib turadigan belgilari hisoblanadi va aynan yechim, barcha asarlarni hissiy mazmun bilan to'ldirgan holda shu belgilarni kuchaytiradi, bu muallifning niyatiga tamomila mos keladi. “Asar o'lmas bo'lishi uchun u inson voqeligi chegaralaridan aql va mantiqqa o'rinli bo'lmagan joyga chiqishi kerak. Shu tariqa, u uyqu va bolalarcha xayolparastlik holatiga yetadi ...”, – deb yozgan rang-tasvirda syurreallik janrining kashshofi hisoblanadigan Jorjo de Chiriko²¹.

Edgar Allan Po yashagan jamiyat Yaqin Sharq va, xususan, Islom sharqidan to'liq xabardor bo'lgan. She'rlar to'plamini o'rganar ekanmiz, Edgar Allan Poning Sharq go'zalligi va nafisligiga tahsin o'qishi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu, ayniqsa, “Temurlang” (“Buyuk Temur”) dostoni, “Isrofil”, “Al-A'rof” va “Mahkum etilgan shahar” she'rlarida seziladi. Yaqin Sharq obrazlaridan manba sifatida foydalanib, shoirning to'plami “Lake School” Amerika maktabining g'oyalariga amal qilgan

²⁰ Злобин Г. Писатели США. // Краткие творческие биографии. – Москва: Радуга, 1990. – С. 189.

²¹ Джорджо де Кирико. Воспоминания о моей жизни. Memorie della mia vita – Перевод с итал. Е.В. Таракановой. – Москва: Garage, Ad Marginem, 2017. – С. 223.

Amerika she'riyatining an'anaviy uslubidan chetga chiqdi. Shoir she'rga oxirzamoniy mazmuni berish uchun faqat Bibliyaga suyanibgina qolmay, balki oxirzamon paytidagi butun olamga oid Qur'oniy ramzlardan ham foydalanadi²². Butun she'riy asar davomida muallif qanday qilib yulduzlar Isrofilning musiqasini eshitishi bilanoq gapirish qobiliyatini yo'qotishini tasvirlaydi:

«And the giddy stars are mute» – «Jimjit yulduzlar ham jimib qoldi»

Bu qismda Edgar Allan Podagi “hayratda qoldiradigan yulduzlar” obrazi hamda Qur'onda tasvirlanganidek, Isrofil karnayining takroriy ovozidan keyin odamlar ko'tarilganidan so'ng, ular bo'ladigan tartibsiz sharoit o'rtasida yaqin bog'liqlik bor²³.

Shoirning she'rda Qur'ondan ilhomlanishini aks ettiruvchi eng yorqin xususiyat – bu unda Qur'onda tilga olingan, “hur” – “hourī” nomi bilan ma'lum bo'lgan ayol tabiatining tilga olinishi hisoblanadi. E.A.Po ularning ko'zlari ifodasiga e'tibor qaratib, bokira ayollar o'zlarining bebaho ellik yetti nazarlarini yashirayotganlari va nima bo'layotganini ancha uzoq masofadan turib kuzatayotganlarini ta'kidlaydi: “turn thine eyes afar”²⁴. U “hur” larning oppoqligini vafot etgan sevgilisining oppoqligi bilan taqqoslab, kinoyaviy ravishda marvarid bilan taqqoslagan holda ko'rsatadi:

«And there shall accompany them fair damsel shaving large black eyes; resembling pearls hidden in their shells» – «Va ularga chig'anoqlarda yashiringan marvaridlarga o'xshash go'zal qora ko'zli zebo qizlar hamroh bo'lar».

Poning iste'dodi uning musiqaviyligida bo'lgan, bundan uning “Lenora”, “Ulalyum”, “Annabel Li”, “Leoneni”, “Al-A'rof” she'riy asarlari dalolat beradi. Ular she'rlar syujeti bilan hamohang takrorlar, assonanslar va alliteratsiyalar bilan “to'yintirilgan”. K. Sitnikovning qayd etishicha, “Edgar Poning har bir she'ri san'at kuchi bilan to'lgan”²⁵.

V.Y.Bryusov Edgar Allan Po she'rlarini tarjima qilganligi va nashr etganligi bilan mashhur. U Po she'rlarining shakliga e'tibor qaratadi, uni saqlab qolish uchun shoir tez-tez ba'zi burilishlar yasaydi va obrazlarni qurbon qiladi. To'g'ri tarjima qilishga urinib, u amerikalik shoirning she'riy asarlari obrazlilikini yetkazishga intilgan. Keyinchalik V.Bryusov Poning she'riy asarlari tarjimalari to'plamini tuzadi. V.Bryusov shoirning ijodini XIX asr oxirida she'riyat va estetika bo'yicha birinchi kichik maqolalarni e'lon qilgan holda o'rgana boshlaydi. Shu vaqtning o'zida uning she'rlarini tarjima qila boshlaydi.

Asliga muvofiq holda tarjima qilish uslubiga rioya qilish V.Y.Bryusovning tarjimonlik tamoyili bo'lgan. Unga ko'ra, shoir chet el muallifining g'oyalarini tarjima qilmaydi, balki o'zining individual uslubiga qo'yib o'z til tizimiga ko'chiradi. Tarjima qilinayotgan muallifning uslubi go'yoki she'riy asarni qayta tiklayotgan, uni o'z tilida, o'z vaqtida qayta yozayotgan tarjimonning uslubiga

²² Котович М.И. Языковые средства создания персонажа в художественном произведении // Идеи. Поиски. Решения: сборник статей и тезисов IX Междунар. науч. практ. конф. – Москва, 2015. – С. 65.

²³ Allen H. Israfel: The Life and Times of Edgar Allan Poe. – N.Y.: Doran Company, 1926. – С. 217.

²⁴ Кортасар Х. Эдгар По – поэт, писатель, критик / пер. Тевлиной Ж.А. // Лат. Америка = America Latina. – Москва, 1999. – № 2/3. – С. 103.

²⁵ Ситников К. Симфония колоколов и колокольчиков: [стихи Э.А. По «Колокола» в рус. пер.] // Лит. Учеба, 2000. – № 1. – С. 206.

moslashadi²⁶. Po she'rlarining V.Y.Bryusov tomonidan bajarilgan tarjimalarining aniqligi satrlar ketma-ketligi va soniga rioya qilinganligidan iborat. U she'rlarning metrik sxemasiga qat'iy rioya qiladi va butun syujetni she'rlarning vazni, ohangdorligi, takrorlari va murakkab tuzilmalarini saqlagan holda g'oyani rivojlantirish asosida yetkazishga harakat qiladi. Po she'rlarini tarjima qilishga yagona mualliflik yondashuvi V.Y.Bryusovning o'z kinoyalari kiritilishidan iborat, bu ba'zan syujetning mojaroviyligini o'zgartiradi. Edgar Po she'rlarini tarjima qilganda, V.Y.Bryusov matnlarning mazmuni va ularning obrazli ma'nosiga hamda mohirona so'z o'yiniga katta e'tibor qaratadi. So'z va shakllarni tanlab, shoir-tarjimon she'rlarning ohangdorligini aniq yetkazadi. Uning tarjimasiga xos yana bir xususiyat – bu she'r tarjimasida misralarning bo'linishi va misradagi satrlar sonining saqlanishidir.

Dissertatsiyaning **“E.A.Po asarlarining o'ziga xos estetik xususiyatlari va badiiy obrazlarining tarjimada qayta yaratilishi” (“Tamerlane” (“Buyuk Temur”) dostoni misolida)** deb nomlangan uchinchi bobida E.A.Poning “Temurlang” dostonidagi hayot falsafasi va Amir Temur obrazi tasvirlanadi, ushbu dostonda badiiy obrazlarni yaratishning lisoniy vositalari tadqiq etiladi va ularni tarjima matnida qayta yaratish usullari tahlil qilinadi.

She'riyat muallif va o'quvchilar o'rtasidagi ma'naviy muloqotni ta'minlash uchun kerak²⁷. E.A.Po she'riy ijodda yozuvchi moddiy va ma'naviy dunyo o'rtasida, voqelik bilan oliy kuch o'rtasida vositachi funksiyasini bajarishini ta'kidlagan²⁸. She'riyat estetikasi deganda shoir ohangdorlik va she'riy kompozitsiyani tushungan, unda inson hissiyotlari va ehtirolari qizg'inligini yetkazish kerak bo'lgan. She'riy asarlar, Edgar Po ta'kidlaganidek, asosiy vazifa – o'quvchiga hissiy ta'sir ko'rsatishni bajarishi kerak. Yozuvchi umumiy syujet, kompozitsiya, hikoya tili va uslubining kichik parchalaridan hosil bo'ladigan effekt birligi haqida so'z yuritgan. E.A.Po o'z asarlarining xomaki variantidan keraksiz so'zlarni olib tashlab, har bir so'z ustida ishlagan. Uning fikriga ko'ra, har bir so'z hikoyada alohida funktsiyani bajarishi, qandaydir bir uslubiy effekt kiritishi va o'quvchining diqqat-e'tiborini ushlab turishi kerak.

Edgar Allan Po asarlari XIX asrdan boshlab rus tiliga tarjima qilina boshlagan. Uning bir qator asarlari D.Mixaylovskiy tomonidan rus tiliga tarjima qilingan. D.Mixaylovskiyning “Fosh qiluvchi yurak” va “Qora mushuk” hikoyalari tarjimasidan o'ttiz yil o'tgach, yozuvchi va tanqidchi Nikolay Shelgunov tomonidan bajarilgan yangi tarjimalari paydo bo'ldi. Keyinchalik Po hikoyalarini tarjima qilish bilan Konstantin Balmont shug'ullanadi. Uning qalamiga besh jildni tashkil etgan qirqdan ortiq hikoyalar tarjimalari mansub. U “Evriska” risolasini tarjima qilgan birinchi rus yozuvchisi bo'lgan. Tanqidchilar ushbu murakkab falsafiy matn Dmitriy Paladkinning tarjimasida yaxshiroq aks ettirilgan, deb hisoblashadi. Bryusov Po she'riyatini asl nusxadan tarjima qilgan, ammo ba'zida Bodlarning fransuzcha tarjimalariga murojaat qilgan.

²⁶ Брюсов В.Я. Эдгар По. Стихи. – Москва: Гос. из-во «Всемирная литература», 1924. – С. 21.

²⁷ Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М., 1975. – С. 18.

²⁸ По Э. Поэтический принцип // Эстетика американского романтизма. – Москва, 2001. – С. 59.

She'riy matni tarjima qilish nafaqat she'ning ma'noviy mazmunini yetkazish bilan, balki asar syujeti negizidagi qofiya, fonetik xususiyatlar, ohangdorlik va obrazlilikni saqlash bilan bog'liq alohida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi²⁹. She'riy matni tarjima qilishda maksimal ijodiy kuch talab etiladi. Hech bir kompyuter va hech bir dastur she'riy matni nihoyatda qiyin bo'lgan tarjima qilish vazifasini bajara olmaydi. Har qanday she'riy ijodning asosida tarjima paytida saqlanishi kerak bo'lgan obrazlilik yotadi.

She'riy matnning tarjimoni o'zi shoir va yozuvchi bo'lishi kerak. She'rdagi asosiy narsa – muallif tomonidan belgilab qo'yilgan murojaatni saqlab qolish bo'lib, buning uchun shaklni buzsa ham bo'ladi. Ba'zan she'ning uslubiy va pragmatik jihatlari bir-biriga zid bo'lishi mumkin. Misol uchun, she'ning uslubiy mazmuni saqlanganda, pragmatik ma'no o'zgarishi mumkin³⁰. S. Y. Marshak yozadi: “She'rlarni tarjima qilish – yuksak va murakkab san'atdir”³¹.

She'riy asarni tarjima qilish jarayonida tarjimonlar ikki xil muammoga duch kelishadi: leksik va semantik mazmunni saqlab qolishda shakl buziladi, shaklni saqlab qolishda esa obrazlilik yo'qoladi va g'oyaviy mazmun qisman uzatiladi. V.Y.Bryusov haqli ravishda: “Tarjimon odatda boshqa elementlar (uslub, she'ning o'zgarishi, qofiyalar, so'zlar tovushlari)ni o'zgartirib, faqat bitta yoki eng yaxshisi ikkita elementni (asosan obraz va hajm) yetkazishga intiladi”, deb ta'kidlaydi³².

She'riy tarjimaning yuqorida aytib o'tilgan barcha xususiyatlaridan kelib chiqib, adekvat (to'g'ri) tarjima qilishga intilayotgan har qanday tarjimon tomonidan hisobga olinishi kerak bo'lgan uchta omilni ta'kidlash lozim. Birinchidan, o'z ona tilini mukammal bilish lozim, negaki nafaqat tarjima, balki matn bilan boshqa har qanday ish ham unga asoslanadi. Ona tili uslubiyati, faqat o'quvchiga ma'lum bo'lgan qaysidir bir tilning madaniy o'ziga xos xususiyatlari, tushuncha va hodisalarini yodda tutish muhimdir.

